

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

**TURKIYADA O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINING O‘RGANILISHI
(Anqara universiteti misolida)**

Aynur O‘z O‘zjan,

*Filologiya fanlari doktori, professor, Anqara Universiteti, Zamonaviy turkiy tillar va adabiyoti bo‘limi,
aynurozozcan@yahoo.com;
ozaynur@humanity.ankara.edu.tr*

Barchangizga ma’lumki, Turkiya Respublikasi O‘zbekistonning mustaqilligini birinchi bo‘lib tan olgan qardosh davlatdir. Bu esa aloqalarimizning uzoq yillarga tayanishidan dalolat beradi. Mustaqillikka erishgandan keyin o‘zbek tilidan foydalanish va uning dunyo bo‘ylab o‘rgatilishi alohida bir ahamiyat kasb etdi.

O‘zbekistonda o‘zbek tilining davlat tili maqomiga erishishi uchun qo‘yilgan qadam o‘zbek tilining O‘zbekistondan tashqarida o‘rgatilishiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Shu jumladan, O‘zbekistonning o‘zbek tiliga bergan e’tibori Turkiyada ham o‘z aksini topdi. Turkiy davlatlar, jumladan, O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritishi bilan Turkiya Respublikasining Prezidenti farmoniga binoan 1992-yilda Turkiya Respublikasining ilk universiteti bo‘lgan Anqara Universitetida Turkiya Respublikasining asoschisi Otaturk tomonidan qurilgan Til, Tarix-Jo‘g‘rofiya fakultetida “Zamonaviy turkiy tillar va adabiyoti” kafedrasi ochildi.

1992-yilda kafedra ochilgandan keyin turkiy davlatlardan olimlar taklif qilindi. O‘zbekistondan hurmatli olim, keyinchalik dissertatsiya ilmiy rahbarim bo‘lgan professor Iristoy Qo‘chqortoyev tashrif buyurdilar. U kishi bakalavr, magistratura, doktorantura talabalariga o‘zbek tili grammatikasi va leksikologiya fanlaridan dars berdi, kafedramizda ilmiy kadrlar tayyorlashda katta hissa qo‘shdi.

Kafedramiz faqat universitetimizdagina emas, balki, Turkiyaning boshqa univetsitetlarida o‘zbektili va adabiyoti bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlashda ham asosiy o‘rinni egallab keladi. Kafedrada ozarbayjon, turkman, qozoq, qirg‘iz, xakas, yoqut, tuva kabi turkiy tillar bilan birga o‘zbek tili ham o‘rgatilmoqda.

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Anqara Universiteti Til va Tarix-Jo‘g‘rafiya fakulteti “Zamonaviy turkiy tillar va adabiyoti” kafedrasidagi tajribalar boshqa universitetlarda ham bunday kafedraning ochilishiga tamal toshi bo‘ldi. Anqara universitetidan keyin G‘oz universiteti Fan-Adabiyot fakultetida 1992-yil “Zamonaviy turkiy tillar va adabiyoti” kafedrasi ochildi. 1993-1994-o‘quv yilida Mug‘la Sitqi Ko‘chman Universiteti Fan-adabiyot fakultetiga bog‘liq ravishda “Zamonaviy turkiy tillar va adabiyoti” kafedrasi ochildi. Hozirgi vaqtida bu uch universitetdan tashqari Turkiyaning bir qancha universitetlarida ham bunday kafedra ochildi. Turkiyada dastlab “Zamonaviy turkiy tillar va adabiyoti” kafedrasi bizning universitetda ochilgani sababli kafedra zimmasiga juda katta mas’uliyat yukladi.

Keyinchalik tashkil etilgan kafedralar uchun mutaxassislar yetishtirish, o‘quv jarayonidagi tajribalar almashinuvi ana shunday ma’sulyatlardan biri edi. Shu nuqtai nazardan bizning dars jarayonidagi tajribalar boshqa universitet kafedralariga dasturul amal bo‘lib xizmat qildi. Turkiyadagi boshqa universitetlarning “Zamonaviy turkiy tillar va adabiyoti” kafedralaridan farqli o‘laroq bizda o‘zbek tili har tomonlama mukammal darajada o‘rgatilmoqda. Boshqa kafedralarda ikkinchi yoki uchinchi kursda bir semestr davomida o‘zbek tili fani o‘qitiladi, bizda esa o‘zbek tili fani birinchi kursning birinchi semestridan e’tiboran majburiy fan sifatida o‘tiladi, shu bilan birga fan sakkiz semestr mobaynida davom etadi. Kafedramizda bakalavr bosqichidagi talabalar 4 yil davomida jami 24 soat O‘zbek tili, 4 soat o‘qib-tushunish, 4 soat O‘zbek tilida o‘g‘zaki va yozma ish yuritish, 8 soat o‘zbek adabiyoti, 2 soat o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, 2 soat leksikalogiya va 2 soat O‘zbekiston tarixi fanlarini o‘qiydi.

Birinchi kursning birinchi semestrida o‘zbek tili I fanini o‘qigan talabalarga o‘zbek tili fonetikasi detallari bilan o‘rgatiladi va boshlang‘ich dan leksik minumumlar o‘rgatiladi. Bu davrda talabalar alifboden boshlab unli va undosh tovushlar, tildagi fonetik hodisalarни kiril alifbosida o‘rganadilar, natijada talabalar kiril alifbosida o‘qish va yozishdan xabardor bo‘ladilar. Talabalar nutq tovushlarini

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

to‘g‘ri talaffuz etishi uchun darslarda talaffuz mashqlari o‘tkaziladi. Talabalar alifbodagi ba’zi harflarning birdan ortiq tovushni ifoda etganlig itufayl iularni talaffuz qilishga qiynalishadi. Shu sababli ham unli tovushlar mavzusiga amaliy dars soatlari ko‘proq ajratiladi. Bu darslarda o‘zbekcha manbalardan, xususan, O‘zbekistonda chop etilgan kitoblardan talabalar darajasiga mos matnlar o‘qitiladi.

Ikkinci semestrda e’tiboran o‘qitiladigan o‘zbek tilining morfologiyasi fani to‘rtinchi kursga qadar davom etadi. Birinchi kursning ikkinchi semestridan boshlab talabalarga grammatik ma’no, grammatic shakl tushuntiriladi. So‘zlarni turkumlarga ajratishda e’tiborga olinadigan qoidalar batafsil o‘qitiladi. Turk tili grammatikasidagi so‘zlarni turkumlarga ajratish orqali o‘zbek tili grammatikasidagi qoidalar solishtirilib tushuntiriladi. Mustaqil so‘z turkumlaridan otlar va uning grammatic kategoriylarining barcha qonun-qoidalari o‘rgatiladi. Hurmat kategoriysi ustida alohida to‘xtash orqali talabalarning bu mavzuni tushunishlari uchun dialoglar va matnlar o‘qitiladi. Bundaqisqa va oson tushuniladigan, kundalik hayotga oid so‘zlar ko‘p qo‘llaniladigan matnlar tanlanadi. Xususan, ikkinchi kursdan boshlab Afandi latifalaridan foydalilaniladi. Keyinchalik yanada katta hajmdagi matnlarga o‘tiladi.

Sifat, olmosh va son so‘z turkumlari turk tili bilan solishtirilib o‘rgatiladi. Son so‘z turkumi turk tilida alohida so‘z turkumi sifatida ajratilmagani uchun bu so‘z turkumi haqida ko‘proq tushuncha berishga to‘g‘ri keladi. Mustaqil so‘z turkumlaridan biri fe’llar mavzusi ikkinchi kursning ikkinchi semestrida yarim yil davomida keng qamrovda o‘qitiladi. Fe’l so‘z turkumi ham turk tili bilan solishtirilib o‘tiladi. Grammatik mavzular tushunishga oson bo‘lishi uchun o‘zbek hikoyalaridan misollar o‘qitiladi va o‘rganilgan grammatic kategoriylar va so‘z turkumlarini talabalar matnlar ichidan topib tahlil etadilar.

Bundan tashqari, talabalarning o‘qigan matnlariga qarab tushunish darajasini aniqlash maqsadida matn haqida o‘zbekcha (savol-javob shaklida) suhbat o‘tkaziladi. Mustaqil so‘z turkumlaridan oxirgisi ravishlar ham o‘qitilgandan keyin yordamchi so‘z turkumlari haqida ma’lumotlar beriladi.

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Ikkinci kursning ikkinchi semestrida talabalar o‘zbekcha o‘qib tushinish darslarini olishadi. Bu darslarda talabalarning saviyasiga mos matnlar tanlanilib, o‘qigan matnni tushunish va o‘z fikrini ifoda etish mahoratlari shakllantiriladi.

Uchinchi kursning birinchi semestrida yordamchi so‘z turkumlari o‘qitiladi. Ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklamalar ham nazariy, ham amaliy jihatdan o‘rgatiladi. Bu so‘z turkumlarini turk tili bilan solishtirilib talabalarning bu so‘z turkumlarini to‘g‘ri qo‘llashi va tarjima etishi ta’minlanadi. Uchinchi kursning ikkinchi semestrida sintaksisga kirish darslari o‘tiladi va gap bo‘laklari sodda gaplar tushuntiriladi.

To‘rtinchı kursning dastlabki semestrida qo‘shma gaplar va ularning turlari mukammal tadqiq etiladi. Gap bo‘laklari tahlil qilinib bu mavzu mustahkamlanadi. Uchinchi kursning dastlabki semestridan boshlab ikki semestr “O‘zbek tilida ish yurutish” fani o‘tiladi.

Kafedramizda to‘rtinchı kurs talabalariga “O‘zbek dialektologiyasi” fani ham o‘qitiladi. O‘zbek shevalarining fonetik, morfologik va leksikologik xususiyatlari umumiyligida o‘qitilgandan keyin shevada yozilgan matnlar o‘rganiladi. Bu matnlarning adabi tildagi shakli asosida fonetik o‘zgarishlar ko‘rsatiladi.

Kafedramizda til darslaridan tashqari og‘zaki va yozma adabiyot, O‘zbekiston tarihi bilan bog‘liq fanlar ham professor-o‘qituvchilar tomonidan o‘qitiladi. “Hozirgi o‘zbek adabiyoti” fanidan umumiyligida 8 soat dars beriladi. Og‘zaki adabiyot esa asosan o‘zbek og‘zaki ijodini tanitish bilan cheklanadi. Talabalar 4- kursda bitiruv malakaviy ishi yozadilar.

Bu darslar yuqorida ta’kidlangani kabi O‘zbekistonda chop etilgan asarlar asosida tushuntiriladi. Til darslarida, ayniqsa, grammatika darslarida ushbu kitoblar yetarli darajada. Lekin, talabalarga o‘zbekcha gaplashishni o‘rgatish doirasida manbalar yetarli emas. O‘zbekistonda chop etilgan chet elliklar uchun o‘zbek tilini o‘rgatishga oid manbalar bizga asqotadi. Qardosh xalqlarning o‘zbek tilini o‘qitishga mo‘ljallangan kitoblarga ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda.


“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARINI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Kafedramizda magistratura va tayanch doktorantura bosqichlarida magistrant va doktorantlar ikki semestr davomida o‘zbek tili fanini o‘rganadilar. Bu fan magistrant va doktorantlarni mutaxassis sifatida shakllantiradigan, darajada olib boriladi. Til sohasida ilmiy ish olib boradigan talabalarga til darslari, adabiyot sohasida ilmiy ish olib boradigan talabalarga esa adabiyot darslari beriladi. Magistrant va doktorantlar darslarni muvaffaqiyatli tamomlaganlaridan so‘ng dissertatsiya yozishni boshlashadi.

Bo‘limimizda bakalavr, magistratura va doktorantura bosqichlarida o‘zbek tili va adabiyoti bilan bog‘liq dissertatsiyalar tayyorlandi, tayyorlanmoqda.


Bo‘limimizda O‘zbek tili va adabiyoti bilan bo‘g‘liq ancha ilmiy va tarjimai shlari qilindi. Bo‘limimizda, O‘zbek yozuvchilarining hikoyalari turkchaga o‘girildi. O‘zbek adabiyotining mashhur yozuvchilaridan biri bo‘lgan Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘oloni” asari turktiliga tarjima qilinib, 1997-yilda bosildi (I.Qo‘chqortoyev, Aynur O‘z Gelinlerin İsyani-Kelinlarqo‘zg‘oloni “, Ecdad yayinlari, Anqara, 1997). I. Qo‘chqortoyev, Aynur O‘z O‘zjon Gelinlerin İsyani, Tiyatro Almanagi V, s.137-190).



Bundan tashqari, o‘zbek xalq o‘g‘zaki ijodining gultoji bo‘lgan *Alpamış Destani* “*Alpomish*” dostoni 2000-yilda turktiliga tarjima qilindi. (Aynur O‘z O‘zjon, Shimshak Jonpo‘lat; Anqara, 2000). Bundan tashqari, o‘zbek adabiyotining Abdulla Qahhor, Uyg‘un, Botu, Zulfiya kabi shoir va yozuvchilari bilan bir qatorda 40 ijodkorning hayoti va asarlaridan saylanmalar nashr qilindi. *Türkiye Dışındaki Türk edebiyatları Antolojisi* “*Turkiyadan tashqarisidagi Turkiy adabiyotning antologiyasi: o‘zbek adabiyoti, 15-II*, Madaniyat Vazirligi, Anqara, 2000).

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARINI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya




O‘zbek tili bilan bog‘liq darslar va qilingan tajribalar turli maqolalar va kitoblarda jamlandi. Xalq og‘zaki ijodining eng kichik turlaridan biri bo‘lgan va hayot qomusi deb baholangan madaniya xazinasi maqollarimiz ham kitob qilib bosildi. 2009-yilida *Kadınlarla İlgili Özbek Atasözleri* “Xotin-qizlar bilan bog‘liq o‘zbek maqollari” (Oynur O‘z O‘zjon, 2009.) Grafiker Nashriyot Uyi, Anqara. (ISBN: 978-975-6355-29-9). Kitobdan tashqari o‘zbek maqollari bilan bog‘liq o‘ndan ortiq maqolalar chap etildi. O‘zbek maqollaring turkcha nashri chiqish arafasidadir.



Tanıqli tilshunos olim Iristoy Qo‘chqortoyev sakkiz yil davomida Anqara Universiteti Til va Tarih-Jo‘grafiya Fakulteti Zamonaviy turkiy tillar va adabiyoti bo‘limida ishlab, son-sanoqsiz talabalarga ustozlik qildi. O‘z ilmiy ishlarini ham davom ettirgan ustozimiz juda ko‘p maqolalar yozdi. Olimning maqolalari shogirdlari tomonidan tavalludining 80 yilligiga bag‘ishlab to‘plam sifatida nashr qilindi. (Oynur O‘z O‘zjon, 2018, *Doğumunun 80. Yılı Münasebetiyle Pro.Dr.İristay Kuçkartayev’in Türkiye’deki Bilimsel Mirası “Tavalludinig 80 yilida Professor Iristoy Qo‘chqortoyevning Turkiyadagi ilmiy merosi”* Turk tili Tashkiloti, Anqara).

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARINI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



Bundan tashqari, Modern Türkük Araştırmaları Dergisi “Modern Turkuk Arashtirmalari (MTAD)” jurnalining 2016-yil sentabr soni ham Iristoy Qo‘chqortoyev tavalludining 80 yilligiga bag‘ishlandi. Olimning shogirdlari tomonidan tayyorlangan bu sonda o‘zbek tili bilan bog‘liq maqolalar o‘rin oldi. (<http://mtad.humanity.ankara.edu.tr/XIII-3Eylul2016.php>.)

Anqara Universiteti Til va Tarix-Jo‘g‘rafiya fakulteti Zamonaviy turkiy tillar va adabiyoti bo‘limi O‘zbekiston bilan hamkorlikda ilmiy anjumanlar tashkil qildi. 2006-yilda O‘zbekiston Respublikasi Anqara Elchixonasi bilan birgalikda o‘tkazilgan Doğumunun 565. Yılında Büyüük Özbek Şairi, Devlet Adamı Alishir Nevayi Bilimsel Toplantısı “Buyuk O‘zbek shoiri, davlat arbobi Alisher Navoiy tavalludining 565 yilligi” ilmiy anjumanı bulardan biridir. Bu ilmiy anjumanda Alisher Navoiyning ijodi har tomonlama tahlil qilindi. 2009-yilda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi qoshidagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharshunoslik instituti bilan hamkorlikda *Tarihselden Moderne Özbekistan: Timur Dönemi ve Sonrası Kaynak Araştırmaları Sempozyumu* “O‘tmishdan bugungacha O‘zbekiston: Temur davri va so‘ngrasi manbalar tadqiqotlari” sempoziumi bo‘lib o‘tdi. Bu sempozium Toshkent shahrining 2200 yilligiga bag‘ishlandi. Bu sempoziumda yetuk olimlar qatnashib, Temuriylar davri bo‘yicha qiziqarli ma’ruzalar qildi.




“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



2020-2021 o‘quv yili 2-semestrida Anqara Universiteti Til va Tarix-Jo‘g‘rafiya fakulteti Zamonaviy turkiy tillar va adabiyoti bo‘limi Mirzo Uug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jurnalistika fakulteti, O‘zbek tilshunosligi va O‘zbek adabiyotshunosligi kafedralari bilan hamkorlikda “Zamonaviy Turkologik Tadqiqotlar Ma’ruzaları” tashkil qildi. Bu ma’ruzalarda 14 nafar yetuk olimlar qatnashib juda qiziqarli ma’ruzalar o‘qishdi.



2021-o‘quv yili kuzgi semestrida esa Bo‘limimiz Mirzo Uug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jurnalistika fakulteti, O‘zbek tilshunosligi O‘zbek tilshunosligi kafedrasasi bilan hamkorlikda “Zamonaviy Turkologik Tadqiqotlar Ma’ruzaları”ni davom ettirdi.

2021-o‘quv yili bahor semestrida mazkur kafedralar bilan hamkorlikda “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi hamda jadid ziyolilari xotirasiga bag‘ishlangan Zamonaviy turkologik tadqiqotlar xalqaro simpoziumi: Umumturk jadidciliği “ÇTAS-2021” tashkil qilindi. Bu simpozium doirasida jadidchilik harakatining mohiyati, murakkab g‘oyaviy strukturasi, qarashlar tizimi, ichki va tashqi ziddiyatlarga qarshi g‘oyaviy, siyosiy va amaliy kurash masalalari ko‘plab davlatlardan ishtirok etgan mutaxassislar hamkorligida muhokama qilindi.

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALAR”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, mana bunday yig‘ilishlar O‘zbekiston-Turkiya aloqalarining yana ham rivojlanishiga va olimlarning o‘zaro fikr almashuviga katta hissa qo‘sadi.Tadbirning barcha tashkilotchilariga chin dildan samimiyl minnatdorchilik bildiraman. Keljakda do‘stona aloqalarimiz va ilmiy hamkorligimizning muvaffaqiyatli davom ettirilishiga umid qilaman.